

**Geologiya-qidiruv ishlari olib borish
to'g'risidagi bitimlar doirasida
tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid
qilishda tanlovlar o'tkazish tartibi
to'g'risida
USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT-2025

Geologiya-qidiruv ishlari olib borish to'g'risidagi bitimlar doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda tanlovlar o'tkazish tartibi to'g'risida uslubiy qo'llanma.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasida geologiya-qidiruv ishlari bo'yicha tuziladigan bitimlar doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish jarayonlarida tanlovlar o'tkazish tartibini belgilab beradi. Qo'llanma xarid jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, raqobatbardosh muhitni yaratish, tanlov bosqichlarini yagona metodika asosida tashkil etish hamda geologiya-qidiruv faoliyatida samarali va maqsadli xarid mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan.

Uslubiy qo'llanma Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar, geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari, yer qa'ridan foydalanuvchi subyektlar, shuningdek xaridlarni amalga oshiruvchi subyektlar uchun mo'ljallangan bo'lib, geologiya-qidiruv ishlari bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlarni tanlov asosida xarid qilish tartibini to'g'ri, aniq va shaffof yuritishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

MUNDARIJA:

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR.....	4
UMUMIY QOIDALAR	5
XARID EHTIYOJLARINI BELGILASH HAMDA TOVARLAR, ISHLAR VA XIZMATLARNI XARID QILISHGA TALABLARNI RASMIYLASHTIRISH	5
TANLOV BO'YICHA TANLASH NATIJALARIGA KO'RA TOVARLAR, ISHLAR VA XIZMATLARNI XARID QILISH.....	5
TANLOV BO'YICHA TANLASH VA TANLOV SAVDOLARINI O'TKAZISH YAKUNLARIGA BINOAN KONTRAKTNI IMZOLASH	5
TANLOVLAR O'TKAZILMASLIGIGA SABAB BO'LADIGAN FAVQULODDA HOLATLAR.....	5
TANLOV QATNASHCHILARI, BUYURTMACHI VA TANLOV KOMISSIYASINING JAVOBGARLIGI	5

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

"O'zbekiston Respublikasining Yer qari to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son " Geologiya-razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 25-iyundagi 178-sonli "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlarni va geologiya-qidiruv ishlari olib borish to'g'risidagi bitimlarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish haqida" gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda geologiya-qidiruv ishlarini samarali tashkil etish, yer qa'ridan foydalanuvchi subyektlar faoliyatida ochiqlik va raqobatni ta'minlash, shuningdek xarid jarayonlarini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Geologiya-qidiruv ishlari doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish mexanizmlarini standartlashtirish, tanlov jarayonlarining shaffofligini oshirish hamda xarid tizimini raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Geologiya-qidiruv faoliyati uchun zarur bo'lgan texnika, uskunarlar, servis xizmatlari va boshqa resurslarni tanlov asosida xarid qilish tizimining samarali ishlashi sohaning barqaror rivojlanishi, loyihalarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, tanlovlar orqali xaridlarni amalga oshirishning muntazam va aniq yuritilishi geologiya sohasida halollik, raqobatbardoshlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma geologiya-qidiruv ishlari bo'yicha bitimlar doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda tanlovlar o'tkazish tartibini belgilash, xarid jarayonlarining asosiy prinsiplari va bosqichlarini izohlash, tanlov hujjatlarini tayyorlash, baholash va rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

UMUMIY QOIDALAR

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Tijorat takliflari so'rovi — tanlov bo'yicha tanlash mavzusi hisoblangan tovarlar, ishlar va xizmatlarga qo'yilgan talablar mavjud bo'lgan hujjatlar turkumi va pudratchi (yetkazib beruvchi)ning texnik, tijorat, tashkiliy imkoniyatlariga qo'yiladigan talablar;

investor — o'z mablag'larini, qarz olingan yoki jalb qilingan mablag'larni (mol-mulk) va (yoki mulkiy huquqlarni) uglevodorodlarni izlash, qidiruv va qazish uchun kiritilayotgan investitsiya faoliyati subyekti, shuningdek uning huquqiy vorislari va yo'l qo'yiladigan sessionariylari;

malaka tanlovi — tanlov savdolarida qatnashishga ruxsat etish uchun talabgorlar buyurtmachining malaka talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida talabgorlarni tanlash. Malaka tanlovi pudratchilar (yetkazib beruvchilar)ni oldindan malaka tanlovi shaklida yoxud tanlov savdolarining birinchi bosqichi bilan birga o'tkazilishi mumkin;

kontrakt — barcha ilovalar va qo'shimchalar bilan birgalikda buyurtmachi bilan pudratchilar (yetkazib beruvchilar) o'rtasida erishilgan va yozma shaklda qayd etilgan, taraflar imzolagan bitim (shartnoma);

raqobat varaqasi — tanlov qatnashchilari taqdim etgan narxlarning qiyosiy jadvallari va shart-sharoitlar mavjud bo'lgan

hujjat. Ushbu hujjat olingan tanlov yoki tijorat takliflari asosida ekspert komissiyasi tomonidan tuziladi;

tanlov — tanlov bo'yicha tanlash yoki tanlov savdolari yo'li bilan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun pudratchini (yetkazib beruvchini) tanlash tartib-qoidasi;

tanlov savdolari — tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul pudratchisini (yetkazib beruvchisini) ishlar va xizmatlarni bajaruvchini tanlash tartib-qoidasi;

tanlov buyurtmanomasi — tanlov taklifi tarkibidagi tijorat hujjatlarida yoki tijorat takliflari so'rovida belgilangan talablarga muvofiq tanlovning aniq predmetiga nisbatan tanlov qatnashchisi tomonidan taqdim etilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymatini va bajarish yoki yetkazib berish muddatlarini belgilaydigan hujjat;

pudratchi — ishlar yoxud xizmatlarni bajaradigan tashkilot;

XARID EHTIYOJLARINI BELGILASH HAMDA TOVARLAR, ISHLAR VA XIZMATLARNI XARID QILISHGA TALABLARNI RASMIYLASHTIRISH

BILIB OLING!

Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun buyurtmachi xarid ehtiyojlarini belgilaydi.

Agar bunda investor va buyurtmachi:

- ✔ bu davr mobaynida xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlardan foydalaniladigan (bajariladigan) vaqt davrini belgilash;
- ✔ bunday tovarlar, ishlar va xizmatlar spetsifikatsiyasini tuzish;
- ✔ xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmini fizik miqdorlarda belgilash;
- ✔ tovar yetkazib berish jadvallarini yoki ishlar va xizmatlarni bajarish jadvallarini tuzish;
- ✔ tovar, ish va xizmatlarning texnik tavsifi hamda xususiyatlari aniq ko'rsatilgan va ular uchun moliyalashtirish ta'minlangan bo'lsa, bu investor yoki buyurtmachining xarid ehtiyoji hisoblanadi.

DIQQAT!

Oy, yil choragi, yarim yillik va bir yil tavsiya etiladigan vaqt davrlari hisoblanadi.

Bunda buyurtmachi bu davrda yuqorida sanab o'tilgan pozitsiyalarni belgilash imkoniyati mavjud bo'lgan uzoqroq vaqt davriga ustunlik berishi kerak.

BU MUHIM!

Boshqaruvchi qo'mita tomonidan tasdiqlangan yillik ish dasturiga va budgetga kiritilgan xarid ehtiyojlariga muvofiq buyurtmachi tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishga talabni tayyorlaydi.

Talab buyurtmachining belgilangan namunaviy shakli bo'yicha rasmiylashtiriladi va buyurtmachining rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Talabda quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak:

- 📌 talabning tartib raqami (buyurtmachi tomonidan beriladi);
- 📌 uning uchun talab yoziladigan obyektning nomi va uning buxgalteriya shifri;
- 📌 buyurtmachining bo'linmasi nomi;
- 📌 tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishning mo'ljallanayotgan sanasi;
- 📌 tovarning zarur soni yoki ishlar va xizmatlar hajmi;
- 📌 tovarlarni yetkazib berish, ishlar va xizmatlarni bajarish joyi;
- 📌 tovarning zarur iste'mol xossalari tavsifi va nomi, shuningdek texnik reglamentlarga yoki standartlarga, TIF TN kodiga va hokazolarga havola qilgan holda, ishlarni, xizmatlarni bajarishga qo'yiladigan talablar;

ishlar va xizmatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan tovarlarning to'liq tavsifi (zarur bo'lganda);

ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlikning smeta qiymati, shuningdek har qaysi pozitsiya bo'yicha umumiy qiymat (mavjud bo'lganda);

buyurtmachining budjeti bo'yicha tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymati tavsifi (mavjud bo'lganda);

buyurtmachining tegishli tarkibiy bo'linmasi rahbarining nomi va imzosi, talabni tayyorlash sanasi;

talabni tasdiqlagan buyurtmachi rahbarining nomi va imzosi, tasdiqlash sanasi.

TANLOV BO'YICHA TANLASH NATIJALARIGA KO'RA TOVARLAR, ISHLAR VA XIZMATLARNI XARID QILISH

DIQQAT!

Bitta kontrakt bo'yicha **100 mln.so'mdan ko'p bo'lmagan** summadagi tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish buyurtmachi tomonidan tanlov o'tkazmasdan amalga oshiriladi.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishga talablar asosida tayyorlangan tijorat takliflari so'rovida quyidagilar bo'lishi kerak:

- ✔ tovarning talab qilinadigan miqdori yoki ishlar va xizmatlar hajmi;
- ✔ yetkazib beriladigan punktning batafsil nomi;
- ✔ to'lov shartlari (agar to'lov shartlari buyurtmachi tomonidan belgilansa);
- ✔ talab qilinadigan sertifikat;
- ✔ tovar qachon olinishi, ishlar va xizmatlar bajarilishi ko'rsatilgan jadval;
- ✔ ishga uchinchi tomonlarni (subpudratchilarni) jalb etish zarurligi va shartlari;
- ✔ menejment va nazoratning afzal metodi;
- ✔ tovarlar, ishlar va xizmatlar birligi narxi;
- ✔ transportda tashish narxi;
- ✔ sug'urta qiymati

Bilib oling!

Tijorat takliflari so'rovi faqat ko'rsatib o'tilgan talablarga muvofiq tovarlarni yetkazib berishga, ishlarni bajarishga va xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan potensial pudratchilarga (yetkazib beruvchilarga) yuboriladi.

Potensial pudratchilar tijorat takliflari so'roviga muvofiq axborot mavjud bo'lgan tijorat takliflarini rasmiylashtiradilar va buyurtmachiga yuboradilar.

Tijorat takliflarini berish muddati tamom bo'lgan paytdan boshlab

5 kalendar kun mobaynida buyurtmachi ekspert komissiyasini tashkil etadi.

Ekspert komissiyasi tushgan tijorat takliflarini ko'rib chiqqan holda tijorat varaqasi tuzadi va quyidagilarni ilova qiladi:

- yetkazib berish muddatlari;
- to'lov shartlari;
- kafolat muddatlari;
- texnik-iqtisodiy parametrlardagi farqlar;
- yetkazib berish bazisi;

boshqa ko'rsatkichlar hisobga olingan holda baholash ballari kiritiladi.

Buyurtmachi tanlov bo'yicha tanlash qatnashchilariga tanlov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan tanlov bo'yicha tanlash

natijalarini, tijorat takliflaridan chetga chiqish va kontrakt tanlov bo'yicha tanlash g'olibiga berilishi sabablarini tushuntirishga majbur emas.

TANLOV BO'YICHA TANLASH VA TANLOV SAVDOLARINI O'TKAZISH YAKUNLARIGA BINOAN KONTRAKTNI IMZOLASH

BILIB OLING!

Buyurtmachi tanlov qatnashchisini uni g'olib deb e'tirof etish to'g'risidagi bildirishnoma bilan bir vaqtda tanlovning bunday qatnashchisiga buyurtmachining rahbari imzolagan kontraktni 2 nusxada yuboradi.

Tanlov qatnashchisi g'olib deb e'tirof etish to'g'risidagi bildirishnoma olingan vaqtdan boshlab **10 kalendar kun** mobaynida kontraktni imzolashi, unga sana qo'yishi va 1 nusxasini buyurtmachiga qaytarishi kerak. Kontraktning oxirgi varianti tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan shakllantirilishi mumkin.

Eslab qoling!

Umumiy qiymati **60 mlrd.so'mdan ortiq bo'lgan** tuzilgan kontraktlar bitim talablariga muvofiq, tasdiqlash uchun boshqaruvchi qo'mitaga kiritiladi. Bunda mazkur kontraktlar faqat ular boshqaruvchi qo'mita tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

Kontrakt uni ikkala tomon imzolagan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va belgilangan tartibda **kelishilgandan** yoki **tasdiqlangandan** hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilikda belgilangan tegishli tartibotlardan o'tgandan keyin kuchga kiradi.

Tanlov qatnashchisi g'olib deb e'tirof etgan vaqtdan boshlab **10 kalendar kun mobaynida** g'olib kontrakt shartlariga muvofiq, bank

kafolati shaklida yoki buyurtmachi uchun maqbul bo'lgan boshqacha turda kontraktni bajarishning ta'minlanishini taqdim etishi kerak.

Agar tanlov g'olibi tegishli Nizomda qayd etilgan shartlarni bajara olmasa, u holda bu buyurtmachining kontraktni rad etishi va tanlov taklifi ta'minlanishini ushlab qolishi uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu holda buyurtmachi tanlovda tanlov taklifi yutgan deb e'tirof etilgan tanlov qatnashchisidan keyingi o'rinni egallagan tanlov qatnashchisi bilan kontrakt tuzish yoki yangi tanlovni e'lon qilish huquqiga ega bo'ladi.

Eslab qoling!

Kontraktni bajarishning ta'minlanishi miqdori kontrakt bahosining 10 foizidan oshmasligi kerak.

TANLOVLAR O'TKAZILMASLIGIGA SABAB BO'LADIGAN FAVQULODDA HOLATLAR

Quyidagi favqulodda holatlarda buyurtmachi vakolatli organ bilan kelishgan holda tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olishni tanlov o'tkazmasdan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin:

tovarlar, ishlar va xizmatlar quyidagi sabablarga ko'ra faqat 1 ta pudratchi (yetkazib beruvchi) tomonidan yetkazib berilishi (bajarilishi) mumkin:

- ✓ uning mutlaq imkoniyatlari va huquqlari;
- ✓ sotib olinayotgan asbob-uskunalarini yoki ehtiyot qismlarni ilgari sotib olingan asbob-uskunalariga mosligi va unifikatsiya qilinishining muhimligi;
- ✓ kontrakt maydoni uchastkalarida ishlarni tashkil etish uchun buyurtmachining nazarida eng qulay bo'lgan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish obyektlari bilan shartnomalar tuzilishi;
- ✓ buyurtmachi nazarida buyurtmachi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar talablariga eng to'liq javob beradigan va buyurtmachiga investorning kompaniyalar guruhi bilan yagona axborot makoniga ega bo'lish imkonini beradigan axborot tizimlari va idoraviy dasturiy ta'minotini (va unga litsenziyalarni) joriy etish hamda birga qo'shib olib borish yuzasidan xizmatlarni sotib olish va amalga oshirish bo'yicha shartnomalar tuzilishi;

✓ texnika, materiallar va asbob-uskunalarini tezkorlik bilan sotib olishni talab qiladigan fors-major vaziyatlarida va texnogen tusdagi avariyalarda;

✓ tegishli nizomga muvofiq o'tkazilgan tanlovlar g'olibning aniqlanishiga olib kelmaganda;

✓ loyihaaning ishlab chiquvchisi tomonidan mualliflik nazorati bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

✓ buyurtmachi xodimini o'qitish yuzasidan shartnomalar tuzish;

✓ investorning xodimini ishlash uchun buyurtmachiga xizmat safariga yuborish bo'yicha xizmatlarni xarid qilish.

Amaldagi kontraktlarga qo'shimcha bitimlar boshqaruvchi qo'mita qaroriga ko'ra tuziladi, agar amaldagi kontraktga barcha tuzilgan qo'shimcha bitimlar bo'yicha amalga oshiriladigan tegishli o'zgartirishlarning umumiy summasi **4 mlrd. so'mdan** va/yoki amaldagi ana shunday kontrakt umumiy summasining **30 foizidan ortiq** bo'lsa.

TANLOV QATNASHCHILARI, BUYURTMACHI VA TANLOV KOMISSIYASINING JAVOBGARLIGI

BILIB OLING!

Tanlovda qatnashishning belgilangan qoidalarini buzgan tanlov qatnashchilari tanlovda qatnashishdan chetlashtirilishi kerak.

Tanlov g'olibi deb e'lon qilingan tanlov qatnashchisi:

- fizik, sifat va texnik parametrlar bo'yicha kontrakt shartlarining shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda bajarilmaganligi;
- tanlov shartlarini bajarish monitoringi natijalari buzilganligi;
- tanlov shartlari va kontraktning boshqacha tarzda buzilganligi uchun javob beradi.

Buyurtmachi:

- ✔ tanlov komissiyasini shakllantirish vaqtida uning tarkibiga nisbatan qo'yilgan talablarga rioya etilishi;
- ✔ bunday xarid ehtiyoji uchun nazarda tutilmagan shakllarda xaridni amalga oshirishga imkon beradigan, uning qiymatini kamaytirish maqsadida xarid ehtiyojining bo'lib yuborilishi;
- ✔ tanlov takliflarini taqdim etish muddati tugaguncha tanlov hujjatlarini sotib olgan talabgorlarni o'z vaqtida xabardor qilmasdan va tanlov takliflarini taqdim etish muddatini ularga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqtga uzaytirmasdan tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi;

- ✔ tanlovda qatnashish yuzasidan buyurtmanomalarni hamda tijorat yoki tanlov takliflarini qabul qilib olishning rad etilishi, ularning hisobga olinishi, maxfiyligi va ochilgungacha saqlanishi ta'minlamaganligi;
- ✔ tanlov savdolari g'olibi bilan kontrakt tuzish muddatining buzilganligi;
- ✔ fizik, sifat va texnik parametrlar bo'yicha kontrakt shartlarining shartnomada belgilangan muddatlarda bajarilmaganligi;

tanlov savdolari o'tkazish tartibotlarining boshqacha tarzda buzilishlari uchun javob beradi.

Daryolar o'zanlarida qum-shag'al materiallarini qazib olish faqat ularni tozalash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi **"Xavfsiz daryo boshqarmasi"** davlat muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda 981-son qarori bilan tasdiqlangan Daryolar o'zanlarini tozalash ishlariga tadbirkorlik subyektlarini elektron onlayn-auksion orqali jalb qilish tartibi to'g'risidagi nizom talablari asosida jalb etilgan tadbirkorlik subyektlari va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bu muhim!

Noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga oid ruxsatnoma, uning egasiga

- 📌 konni qazib olish,
- 📌 qazib olinayotgan mineral xom ashyoni qayta ishlash,

- 📌 ruxsatnoma shartlarida boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, qazib olish jarayonida olingan mineral hosilalardan foydalanish (qayta ishlash) huquqini beradi.

Noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqiga oid ruxsatnoma noruda foydali qazilmalarning zaxiralari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan kon bo'yicha ularni qazib olish uchun beriladi.

Bu muhim!

Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga oid ruxsatnomani konning alohida uchastkasidagi noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun berilishiga ruxsat etiladi!

Ushbu holat:

- ✔ konni qazib olishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yomonlashtirmasligi kerak;
- ✔ konning qolgan qismlari (uchastkalari)ni o'zlashtirishga to'sqinlik qilmasligi kerak

Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun bir necha ruxsatnomalarning bir vaqtning o'zida bitta yer qa'ridan foydalanuvchiga berilishiga yo'l qo'yiladi

Bir vaqtning o'zida noruda foydali qazilmalarning turli konlarini, ayrim turdagi qurilish va boshqa materiallar va buyumlarni ishlab chiqarish uchun zarur komponent sifatidagi mineral xom ashyo qazib olishga oid yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun bir necha ruxsatnomalar bitta yer qa'ridan foydalanuvchiga berilishi mumkin.

Noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma egasi, unga berilgan kon ajratish dalolatnomasi doirasida qo'shimcha ruxsatnomasiz yer qa'rini geologik o'rganishga doir ishlarni, ularni Yer qa'ridan foydalanish markazining Davlat geologiya fondida hisobiga qo'yish sharti bilan olib borish huquqiga ega.

[illegible]